

«TASDIQLAYMAN»  
Qashqadaryo viloyati statistika  
boshqarmasi boshlig'i v.b.

SH. Tayloqov

2024-yil 15 mart

## Raqamlashtirish va ma'lumotlarni saqlash markazi to'g'risida NIZOM

### 1-bob. Umumiy qoidalar

Mazkur Nizom Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi Raqamlashtirish va ma'lumotlarni saqlash markazining (keyingi o'rinlarda Markaz deb ataladi) maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquq va majburiyatlari, shuningdek, uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

1. Markaz O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-114-son qaroriga muvofiq tashkil etilgan va Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi (keyingi o'rinlarda – boshqarma) ning tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi.

2. Markaz o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi qonuni va boshqa qonunlariga, Oliy Majlisning normativ qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi to'g'risidagi nizomga, mazkur nizomga, shuningdek, boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

3. Markaz faoliyati hududiy statistika organlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish samaradorligini oshirish, axborot xavfsizligini va dasturiy ta'minot va mahsulotlar bilan ta'minlashga yo'naltirilgan.

4. Markaz o'z faoliyatini Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi boshlig'i rahbarligida amalga oshiradi.

### 2-bob. Markazning asosiy vazifalari va funksiyalari

5. Markazning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

**a) hududiy statistika organlarida AKT rivojlantirish sohasida:**

Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasida AKTni joriy etish sohasida yagona siyosatni amalga oshirish;

Boshqarmada qo'llaniladigan dasturiy ta'minotni texnik qo'llab-quvvatlash;

Boshqarma ehtiyojlari uchun Statistika agentligi tomonidan ishlab chiqilgan dasturiy ta'minotni joriy etish;

Boshqarma tomonidan ko'rsatiladigan interaktiv davlat xizmatlarini joriy etish va rivojlantirish;

Boshqarma rasmiy veb-saytini ishlab chiqish va yuritish;

Boshqarmada AKTni rivojlantirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish;

**b) axborot xavfsizligini taminlash va axborot tizimlari tarmoqlarini boshqarish sohasida:**

axborot xavfsizligini taminlash sohasida yagona texnologiya siyosatini amalga oshirish; tarmoqlarning topologiyasini, tarmoq va kommunikatsiya uskunalari tuzilishini aniqlash;

ma'muriy va tuman (shahar) statistika bo'limlarida mahalliy kompyuter tarmog'ini boshqarish;

server uskunalari, mahalliy ma'lumotlar bazalarini va axborot tizimlarini boshqarish;

Statistika boshqarmasida ma'lumotlarini arxivlashtirish va saqlash;

**v) texnik rivojlantirish va xizmat ko'rsatish sohasida:**

hisoblash texnikasi, tarmoq va periferiya uskunalari, telefon aloqalari vositalarini texnik qo'llab-quvvatlash;

kompyuter texnikasi parkini yangilash bo'yicha takliflarni ishlab chiqish hududiy statistika organlarida periferiya uskunalari, shuningdek ularni amalga oshirish;

nusxa ko'chirish va ko'paytirish ishlarini takomillashtirish, hududiy statistika organlarining ehtiyojlari uchun ma'lumotnoma, o'quv-metodik, ilmiy, huquqiy va boshqa adabiyotlarni chiqarish.

6. Markaz oldiga qo'ygan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni bajaradi:

Boshqarmada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan ishlab chiqilgan axborot tizimlarini joriy etishni amalga oshiradi;

Boshqarma rasmiy web-saytining mazmuni va uni to'ldirish bo'yicha ma'muriy ishlarni amalga oshiradi;

tarmoqlarning topologiyasini, tarmoq va server uskunalari tarkibini, shuningdek tizim dasturlarini aniqlaydi;

axborot resurslari va tizimlarining ish faoliyatini nazorat qiladi;

foydalanuvchilarning ishini nazorat qiladi va qabul qilingan axborot xavfsizligi siyosati va tashkiliy-ma'muriy hujjatlarga muvofiq boshqa vazifalarni bajaradi;

domen zonalarini, serverlari, ish stansiyalari, hududiy statistika organlarining mahalliy va korporativ tarmoqlari faoliyatini qo'llab-quvvatlashni taminlaydi;

o'z vakolatlari doirasida axborot xavfsizligi buzilishlarini tekshirish ishlarida ishtirok etadi;

Boshqarma xodimlarini elektron pochta xabarlari, real vaqtda matnli xabarlar, audio-video konferensiyalar va boshqalar orqali o'zaro aloqa vositalarini ta'minlaydi va qo'llab-quvvatlaydi;

barcha hujjatlar, fayllar va statistika malumotlarini elektron shaklda arxiv saqlashni huquqi cheklangan maxsus papkalarda amalga oshiradi;

Internet tarmog'iga kirishni qo'llab-quvvatlaydi;

Boshqarmada kompyuter texnikasi, periferiya uskunalari va nusxa ko'chirish uskunalarini kuzatib boradi va qayd etadi;

texnik hujjatlar talablariga muvofiq profilaktik va rejali ogohlantirish ishlarni olib boradi;

kompyuter texnikasi va boshqa texnik vositalarni sotib olish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

telefon liniyalari, aloqa asbob-uskunalarining uzluksiz va sifatli ishlashini taminlaydi;

foydalanuvchilarning buyurtmalari bo'yicha statistika byulletenlari, yig'ma va boshqa hujjatlarning tezkor va yuqori sifatli nusxalarini ishlab chiqaradi.

### **3-bob. Markazning huquq va majburiyatlari**

8. Markaz o'ziga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarishda quyidagi huquqlarga ega:

o'ziga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish davomida belgilangan tartibda Boshqarma bo'linmalardan ma'lumotlarni so'rash va olish;

Boshqarma rahbariyatiga hududiy statistika organlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish masalalari bo'yicha takliflar kiritish;

Boshqarmada axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish;

Markaz vakolatiga kiruvchi ishlarni bajarish bo'yicha muvofiqlashtirish va nazorat qilish;

Markaz vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha boshqarma bo'linmalari bilan instruktiv majlislar o'tkazish;

Markaz faoliyatiga taalluqli masalalar bo'yicha konferensiya ishlarida, shu jumladan xalqaro seminar va majlislarda, shuningdek xalqaro loyihalarda ishtirok etish.

9. Markazning javobgarligi:

O'ziga yuklatilgan vazifalarni haqqoniy tarzda va samarali amalga oshirish;

Vakolatiga kiruvchi tahliliy va boshqa ma'lumotlarni yuqori darajada tayyorlash;

Markazga taqdim etilgan loyihalar hujjatlarini, taklif va savollarini sifatli bajarishni tashkil qilish;

Markaz xodimlari tomonidan belgilangan me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq ijro intizomini ta'minlash;

Markazga kelib tushgan va chiqayotgan materiallar bo'yicha davlat va tijorat sirlarining sir saqlanishi, yakka tartibdagi ma'lumotlarning maxfiylikiga rioya qilinishi uchun javobgar bo'ladi.

### **4-bob. Markaz tuzilmasi**

10. Markaz tuzilmasi markaz boshlig'ini o'z ichiga oladi, shuningdek:

Markazda muhandis-dasturchilar, hisoblash texnikasini ta'mirlash muhandislar, muhandis-sistema ma'murilar, axborot xavfsizligi bo'yicha muhandislarni o'z ichiga oladi.

11. Markazning ishlarida markaz boshlig'i rahbarlik qiladi.

12. Markaz boshlig'i va boshqa mutaxassislar boshqarma boshlig'i tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

13. Markaz boshlig'i va boshqa mutaxassislar lavozimiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi bilan kelishgan holda tayinlanadi.

### **5-bob. Markaz faoliyatini tashkil etish**

14. Markaz faoliyati O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi to'g'risidagi" nizom, Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi nizomi va ushbu nizomga, buyruqlarga muvofiq tashkil etiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi direktori ko'rsatmalariga, idoralar rahbarining buyruqlar va yo'riqnomalariga, shuningdek, davlat organlarining rejalari asosida, Markaz ish rejalari va Markaz xodimlarining funksional majburiyatlari asosida tashkil etiladi.

Markazning ish rejasi Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi boshlig'i tomonidan tasdiqlanadigan boshqarmaning ish rejalari asosida shakllantiriladi va boshqarma tomonidan tasdiqlanadi.

Xodimlarning funksional majburiyatlari markaz boshlig'i tomonidan ta'yinlangan vazifalar asosida tayyorlanadi va boshqarma boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi.

#### **15. Markaz boshlig'i:**

Markazning butun faoliyatiga rahbarlik qiladi, markaz tarkibiga kiruvchi xodimlarning ishlarini tashkillashtiradi, Markazga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni bajarilishi, ijro va mehnat intizomi holati uchun shaxsan javob beradi;

Markaz xodimlar jadvali va tasdiqlangan tuzilmaga muvofiq nomzodlarni malaka darajasini oshirish, kasbiy faoliyatini oshirish, imtiyozlar va ularni intizomiy jazolash chora tadbirlarini aniqlik va diqqat bilan o'rganib chiqqan holda rahbariyatga ko'rib chiqish uchun taqdim etadi;

Markaz ish reja loyihasini ishlab chiqib tasdiqlash uchun boshqarma boshlig'ini nazorat qiluvchi o'rinbosariga taqdim etadi;

Markaz xodimlari o'rtasida majburiyatlarni taqsimlaydi;

Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi majlislari va yig'ilishlarida, shuningdek Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi rahbariyati topshirig'iga asosan markaz faoliyatiga kiruvchi va idoralararo ishchi guruhlar masalalarida ishtirok etadi;

Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi boshlig'i va uning o'rinbosarlari topshiriqlariga muvofiq materiallarni tahlil qilish va umumlashtirish, qo'yilgan ustuvor vazifalarni yechishda yanada samarali takliflarni ishlab chiqish va tayyorlashni amalga oshiradi;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini va interaktiv davlat xizmatlarini rivojlantirishda, bo'linma rahbarlari hamda mutaxassislarga konsultativ va uslubiy yordam ko'rsatadi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining va Boshqarmaning joriy va istiqbol ish rejalari muvofiq Markaz vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha tahliliy va boshqa materiallarni o'z vaqtida, tizimli asosda tayyorlanishini ta'minlaydi;

Markaz ishining samaradorligi darajasini oshirish va kadrlar bilan to'ldirish choralari ko'radi;

Markaz kadrlar zahirasi shakllantirishni va yangilashni, kadrlar zahirasi kiritilgan shaxslar bilan tizimli ishlarni tashkil qilishni ta'minlaydi;

Markaz xodimlari bilan yuklatilgan vazifalar, kiruvchi hujjatlarni nazorat qilish va tajriba almashish masalalari yuzasidan yo'riqnomalar berish bo'yicha yig'ilishlar o'tkazadi;

ish yuritishni olib borish, topshiriqlarni o'z vaqtida ijro etilishini qat'iy nazorat qilish bo'yicha ishlarni tashkil qiladi, xodimlar tomonidan xizmat hujjatlari bilan ishlash va ularni saqlash bo'yicha ishlarning belgilangan tartibiga amal qilinishini ta'minlaydi.

**16. Markaz boshlig'i vaqtinchalik bo'lmagan taqdirda uning vazifasini yetakchi muhandis-dasturchi bajaradi;**

**17. Markazning yetakchi muhandis-dasturchi, 1-toifali muhandis-dasturchi;**

funksional vazifalariga muvofiq materiallar, takliflar va hujjat loyihalarining sifatli, ishonchli va o'z vaqtida tayyorlanishi uchun shaxsan javob beradi;

foydalanuvchilarga dasturiy ta'minot, Internet resurslari va ma'lumotlar bazalari bilan ishlash bo'yicha texnik yordam va maslahat beradi;

hududiy statistika organlari faoliyatining kompleks va aniq yo'naltirilgan tadqiqotlarida ishtirok etadi;

Boshqarma rasmiy veb-saytni ishlab chiqish va yuritish;

Markaz rahbarining topshirig'iga binoan jismoniy va yuridik shaxslardan, shu jumladan elektron shaklda kelib tushgan murojaatlarni ko'rib chiqish uchun zarur materiallar tayyorlanadigan masalalar bo'yicha qarorlar loyihasini tayyorlaydi;

rahbariyatning topshiriqlariga muvofiq joriy ishlarni bajaradi hamda vazifalar taqsimlanishiga muvofiq boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

**18. Bo'lim yetakchi tizim-muhandisi ma'muri:**

funksional majburiyatlarga muvofiq ta'yorlangan materiallar, takliflar va loyiha hujjatlari sifatini, ishonchligi va o'z vaqtida bajarilishi uchun shaxsan javobgar bo'ladi;

Boshqarma tizimida yaxlit va xavfsiz axborot makonini yaratadi;

Tarmoqning topologiyasini, tarmoq va aloqa uskunalari tuzilishini aniqlaydi;

statistika boshqarmasining lokal hisoblash tarmoqlari va hududlardagi bo'limlar lokal hisoblash tarmoqlari asosida o'zaro tashkil etilgan korporativ tarmoqning faoliyat ko'rsatishini boshqaradi;

statistika boshqarmasi Internet tarmog'iga ulanishni tashkil etadi va ishlashini ta'minlaydi;

statistika boshqarmasi rasmiy veb-saytning ish faoliyatini ta'minlaydi.

statistika boshqarmasi axborot tizimlariga va tarmoq servislardan foydalanuvchilarga berilgan vakolatlar doirasida foydalanishning cheklanishini ta'minlaydi;

hududiy statistika organlari faoliyatini kompleks va maqsadli o'rganishlarda ishtirok etadi;

Markaz boshlig'ining topshirig'iga muvofiq jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini, shu jumladan elektron shakldagi murojaatlarni, ko'rib chiqish uchun zarur materiallarni tayyorlaydi, ularda ko'rsatilgan masalalarni hal qilish bo'yicha loyihani tayyorlaydi;

rahbariyatning topshiriqlariga muvofiq joriy ishlarni bajaradi;

vazifalar taqsimlanishiga muvofiq boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

**19. Bo'lim axborot xavfsizligi bo'yicha yetakchi muhandisi:**

axborot xavflarini tahlil qilish, axborot oqimi kanallarini aniqlash va bartaraf qiladi;

qabul qilingan chora-tadbirlar va qo'llanilayotgan axborotlarni himoya qilish vositalarini kuzatadi va samaradorligini baholaydi; statistika boshqarmasining axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha istiqbolli va joriy rejalari hamda tadbirlarni ishlab chiqadi;

axborotlari himoya qilish vositalarining ishlashini nazorat qiladi;

kompyuter jinoyatlari va jinoyatlarning oldini olish bo'yicha faoliyatni amalga oshiradi;

tarqatilishi chegaralangan ma'lumotlarni oshkor qilish, hamda hujjatlarini yo'qotish va axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha aniqlangan boshqa qonunbuzarliklarni tekshirishlarida ishtirok etadi;

Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi rasmiy veb-saytining xavfsizligini ta'minlash maqsadida yilda bir marta ekspertizadan o'tkazish

hududiy statistika organlari faoliyatini kompleks va maqsadli o'rganishlarda ishtirok etadi;

Markaz boshlig'ining topshirig'iga muvofiq jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini, shu jumladan elektron shakldagi murojaatlarni, ko'rib chiqish uchun zarur materiallarni tayyorlaydi, ularda ko'rsatilgan masalalarni hal qilish bo'yicha loyihani tayyorlaydi;

rahbariyatning topshiriqlariga muvofiq joriy ishlarni bajaradi;

vazifalar taqsimlanishiga muvofiq boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

**20. Hisoblash texnikasini ta'mirlash bo'yicha yetakchi muhandisi, hisoblash texnikasini ta'mirlash bo'yicha 1-toifali muhandislari:**

telefon va boshqa aloqa uskunalaridan foydalanishni takomillashtiradi va ta'mirlaydi;

statistika boshqarmasining balansidagi kompyuter texnikasini ta'mirlaydi va texnik xizmat ko'rsatadi;

statistika boshqarmasi balansidagi kompyuter texnik qurilmalarini modernizatsiya qilish, hamda foydalanishda doimiy va sifatli ishlashini ta'minlaydi;

Markaz boshlig'ining topshirig'iga muvofiq jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini, shu jumladan elektron shakldagi murojaatlarni, ko'rib chiqish uchun zarur materiallarni tayyorlaydi, ularda ko'rsatilgan masalalarni hal qilish bo'yicha loyihani tayyorlaydi;

rahbariyatning topshiriqlariga muvofiq joriy ishlarni bajaradi;

vazifalar taqsimlanishiga muvofiq boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

Markaz boshlig'i

SH. Xalilov

Yetakchi muhandis dasturchi

X. Abdullayev

Yetakchi muhandis-sistema ma'muri

Vakant

Axborot xavfsizligi bo'yicha yetakchi muhandis

SH. Xursanov

1-toifali muhandis dasturchi

SH. Burxonova

1-toifali muhandis-sistema ma'muri

D.Xudoyqulova

Hisoblash texnikasini ta'mirlash

bo'yicha 1-toifali muxandis

A.Mustafoyev